

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshiboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF FORMATION OF INSURANCE MECHANISM IN THE FIELD OF USE OF RENEWABLE ENERGY SOURCES IN UZBEKISTAN

Sadikova Dilafruz Radjabovna

Basic doctoral student of

Tashkent state university of law

Abstract. The article examines the legal and practical aspects of establishing an insurance mechanism for renewable energy use in Uzbekistan. It analyzes the regulatory framework and international experience, highlights existing technical risks, and justifies the need to introduce mandatory insurance to enhance the safety, stability, and reliability of renewable energy projects.

Keywords: alternative energy, clean energy, insurance policy, green energy, green certificate.

O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sadikova Dilafruz Radjabovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: Pstudy22@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-8761-2767>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda sug'urta mexanizmini shakllantirishning huquqiy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Normativ baza hamda xalqaro tajriba tahlil qilinib, mavjud texnik xatarlar ko'rsatiladi. QTEM loyihalarida xavfsizlik va barqarorlikni oshirish uchun majburiy sug'urtani joriy etish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: muqobil energiya, toza energiya, sug'urta polisi, yashil energiya, yashil sertifikat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N83>

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (matnda keyinchalik QTEM) joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni oshirish, balki energiya xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston energetika sektori ham ushbu yo'nalishda jadal rivojlanib, mamlakatda quyosh, shamol va gidroenergiya manbalarini kengaytirishga qaratilgan siyosatni ilgari surmoqda. O'zbekistonning tabiiy imkoniyatlari katta bo'lib, UNFCCC tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatning QTEM salohiyati 117 984 million tonna neft ekvivalentini tashkil etadi[1]. IEA(Uzbekistan energy profile – Analysis — IEA) hisobotiga ko'ra esa, QTEM bo'yicha rejalashtirilgan quvvatni umumiy energetika sektorida 2030-yilgacha 7 387,6 MW ga yetkazish ko'zda tutilgan[2].

Mamlakat energetika tizimida QTEM ulushi izchil o'smoqda. Misol uchun, 2025-yil 22-oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekiston hududida hozirgi kunda 12 ta quyosh va 5 ta shamol stansiyasi toza energiya ishlab chiqarmoqda, ularning umumiy o'rnatilgan quvvati esa 4 682 MW ni tashkil qiladi[3] Bu esa o'z-o'zidan energetika sektorida yashil energiyaning rivojlanishi sohada o'sish bilan birga, QTEM infratuzilmasining xavf-xatarlarini moliyaviy jihatdan boshqarish zaruratini paydo qiladi. Ayniqsa quyosh va shamol kabi manbalarining o'zgaruvchanligi, ishlab chiqarishdagi xato va kamchiliklar, uskunalarni yetkazib berish, o'rnatish, hosil bo'lgan energiyani uzatish bilan bog'liq tizimdagi yo'qotishlar va texnik nosozliklar sohani sug'urtalashni talab qiladi. Mazkur holatlar O'zbekistonda QTEM sohasida sug'urta mexanizmini shakllantirish masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib borayotganini anglatadi. Sug'urta polisi o'z o'rnida xavf-xatarlarni boshqarish imkoniyatini berishi bilan bir qatorda, nafaqat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini himoya qiladi, balki investorlar uchun moliyaviy barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bizga ma'lumki xorijda, ayniqsa Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, AQSh, va yaqindan Xitoy va Hindiston yashil energiyadan jadal foydalanib kelmoqda, bu mamlakatlarda toza energiya sektori o'sib, uning huquqiy asoslari mustahkamlanib kelmoqda. Xalqaro maydonda, energetika sohasida, jumladan aynan QTEM sohasidagi sug'urta mexanizmi ko'plab soha vakillari tomonidan o'rganilgan bo'lib, M. Hao, K. Qian va S. C. Chaularning olib borgan tadqiqotlari natijasi chegaralangan vaqt oralig'ida sodir bo'lgan tabiiy ofatlardan (masalan, kuchli yomg'ir, qurg'oqchilik, toshqin) kelib chiqadigan zararlarni qoplash uchun parametrik sug'urta masalasini ko'rib chiqadi. Ilmiy ishda sug'urta polislarning ob-havo (masalan, quyosh nurlarining intensivligi) indekslariga asoslangan holda avtomatik talabnoma va da'volar mexanizmi taklif etiladi, tadqiqot natijalari asosan blokcheyn-asosidagi sug'urta mexanizmini o'rganadi, bu mexanizm bevosita QTEM aktivlarini iqlimiy xatarlardan himoya qilish uchun ajoyib asos bo'lib xizmat qiladi[4].

Xorijiy tadqiqotchilar: Fallou Niakh, Alicia Bassière, Michel Denuit, Christian Robert o'zlarining QTEM sektorida sug'urta mexanizmining rolini o'rganib, an'anaviy sug'urta bozoridagi asosiy muammolardan biri bo'lgan "Basis Risk"ni kamaytirish orqali QTEM loyihalarini sug'urtalashni yanada samarali va adolatli qilishni taklif qiladilar. O'z tadqiqotlarida mualliflar, xususan, parametrik sug'urtani (masalan, yetarli shamol/quyosh bo'lmaganida avtomatik to'lovni ta'minlaydigan sug'urta) qo'llab-quvvatlaydilar. Ammo, bunday sug'urtada Bazis Risk mavjud, ya'ni haqiqiy yo'qotish bilan sug'urta to'lovi o'rtasida nomuvofiqlik bo'lishi mumkin. Bu jarayon, Peer-to-Peer (P2P) tamoyiliga asoslangan mexanizmni joriy etadi, bu yerda QTEM ishlab chiqaruvchilar guruhdagi Bazis Riskni o'zaro taqsimlash va birgalikda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, natijada umumiy sug'urta xarajatlari kamayadi va QTEM loyihalari uchun moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlik oshadi[5].

Ushbu tadqiqot esa Yashil energiya manbalaridan eng keng qo'llaniladiganlaridan birining – quyosh energiyasining — asosiy muammosi, ob-havoga bog'liqligi va beqarorligini yengish uchun sug'urta masalasini yoritadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra an'anaviy sug'urta o'rniga parametrik quyosh energiyasi sug'urtasi taklif etiladi, bunda sug'urta puli quyosh paneli egasining haqiqiy yo'qotishiga qarab emas, balki masofadan zondlash (sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari) orqali tekshiriladigan geografik o'ziga xos indeks (yer yuzasiga tushgan quyosh nurlanishi) ma'lum bir chegaradan pastga tushganda avtomatik ravishda to'lanadi. Ushbu

yondashuv blokcheyn va aqlli kontraktlar yordamida sug'urta shartnomalarining rasmiylashtirilishi va to'lov jarayonlarini avtomatlashtirish, shaffoflashtirish hamda maxfiylikni saqlash (zk-SNARKs orqali) imkonini beradi. Natijada, ushbu tizim quyosh energiyasini ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini barqarorlashtirishga va QTEM loyihalariga yo'naltirilgan sarmoyalarning xavfini kamaytirishga xizmat qiladi[6].

Maqolada QTEM ning rivojlangan davlatlar va O'zbekiston miqyosidagi qonunchilik bazalari va sohaga oid qabul qilingan actlar, normativ hujjatlar tahlili yoritib berilgan.

Mavzuni tadqiq qilish asnosida:

1. Davlatlar qonunchiligida mavjud qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishini huquqiy asoslarini o'rganib chiqishga imkon beradigan emperik metod;

2. Qo'shni mamlakatlar qonunchiligidagi qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishning huquqiy asoslarini, nazariya va amaliyotdagi tajribalarini o'rganib chiqish imkoniyatini beradigan tarixiy metod;

3. O'zaro mavjud elementlar majmui sifatida xalqaro qonunchilikda mavjud qonunlarni qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Muhokama. O'zbekiston energiya mustaqilligini ta'minlash hamda ekologik xavfsizlikni oshirish maqsadida QTEM ni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-mayda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-sonli Qonuni ushbu yo'nalishdagi asosiy normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Qonunda QTEM dan foydalanish sohasidagi talablar keltirib o'tilgan va unga ko'ra: qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi faoliyat ushbu sohadagi texnik reglamentlar, normalar va qoidalarga, ekologik, sanitariya, shaharsozlik normalari va qoidalariga, ishlarni xavfsiz yuritish talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi kerakligi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 3-ustuvor yo'nalish — "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" doirasida energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, QTEM loyihalarini keng joriy etish, 2026-yilgacha elektr ishlab chiqarishdagi QTEM ulushini keskin oshirish vazifasi etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonida mamlakatda QTEM sohasi va texnologik modernizatsiya masalalariga ustuvor ahamiyat berildi. Farmonga ko'ra, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 000 MW ga yetkazish hamda uning umumiy energiya iste'molidagi ulushni 40% gacha oshirish belgilangan. Strategiya "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni tezlashtirish, energiya bozorida "yashil sertifikatlar" tizimini joriy etish, ekologik markirovka va ekologik barqarorlikni baholash mexanizmlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli "2023 yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori yurtimizda QTEM ni keng joriy etish va energiya tejamkor texnologiyalarni targ'ib qilishni maqsad qiladi: u 4300 MVt quvvatli yangi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini (quyosh, shamol, kichik GES) yaratishni belgilaydi, davlat va investorlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini; kichik quvvatli quyosh panellari

va energiya tejovchi uskunalarni ijtimoiy soha obyektlarida joriy etishni rejalashtiradi, shuningdek ularni soliq va moliyaviy imtiyozlar bilan ta'minlash tartibini nazarda tutadi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'RQ-939-sonli Qonunida esa, texnologiyalarning amaliy qo'llanishi uchun yanada aniqroq normativ talablar belgilandi. Ushbu hujjat energetika tizimida raqobat bozorini yaratish, avtomatlashtirilgan ma'lumot yig'ish va real vaqtda monitoringni, energiya iste'molini prognozlashni joriy etishni nazarda tutadi, shuningdek, yangi regulyator organlari va "markaziy xaridor" modelini yaratishni tartibga soladi. Shuningdek, ushbu qonun iste'molchilar manfaatini himoya qilish uchun tarif shaffofligi va tarifni ortiqcha oshirishni cheklovchi mexanizmlarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining 14.07.2021 yildagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib taomillari to'g'risida" gi 701-sonli qonunining 1-ilovasida: amalga oshirilishi uchun litsenziyalarni olish talab qilinadigan faoliyat turlarining rasmiy ro'yxati keltirilgan bo'lib, ro'yxatning 52-59 bandlarida elektr energiyasini ishlab chiqarish(shu jumladan QTEM), uzatish, taqsimlash, saqlash, elektr ta'minoti, markaziy xarid qiluvchi faoliyati, elektr energiyasi bozori operatori faoliyati, elektr energiya savdosi faoliyatlari litsenziyalanadigan faoliyat turlari qatoriga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 91-son Qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energetikasi sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizom" QTEM bilan bog'liq faoliyatni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu Nizom QTEM qurilmalari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasiga bevosita alohida istisnalar yoki maxsus litsenziya toifalarini ajratmagan holda, "barcha yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshiradigan energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash va xarid qilish" litsenziya talablarini umumlashtiradi. Ya'ni, Nizom QTEMdan foydalanuvchi yirik elektr stansiyalarini ham, an'anaviy stansiyalarni ham bir xil tartibga soladi va "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning tegishli talablariga rioya etishni litsenziatlarning umumiy majburiyatlari doirasiga kiritadi.

QTEM borasida xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayniqsa sohadagi sug'urta mexanizmining huquqiy asoslarini quyida Saudiya Arabistoni qonunchiligida ko'rib chiqamiz. Saudiya Arabistonda yirik sanoat loyihalari va neft-gaz infratuzilmalariga yaqin joylarda yoki sanoat hududlarida joylashgan quyosh panellari tizimlari uchun majburiy sug'urta mexanizmi joriy etilgan. Asosan Saudi Electrocitiy company va Water&Electrocitiy Regulatory Authority talablariga muvofiq sanoat uskunalar sug'urtasi va uchinchi shaxslarning javobgarligi uchun sug'urta mexanizmi qo'llaniladi. Aholi uylariga o'rnatiladigan qurilmalarga to'xtaladigan bo'lsak, Saudiya Arabistoni so'nggi yillarda qurilish sohasida jiddiy qonuniy o'zgarishlar joriy qildi. 2020-yildan boshlab Qishloq va shahar obodonlashtirish vazirligi hamda Saudiya Markaziy banki (SAMA) qarorlari asosida barcha muvofiq qurilish loyihalarida pudratchilar "Inherent Defects Insurance"[7] (Doimiy nuqsonlarni sug'urtalash — IDI) polisini majburiy olishlari kerak. Bu sug'urta binodagi konstruktiv nuqsonlar – devor, tom qismi yoki poydevor kuchi pasayishi kabi darhol hal qilinishi lozim bo'lgan xatolarga qarshi himoya beradi. Xususan, 2024-yil 6-oktyabrdan boshlab barcha uy-joy qurilishi uchun qurilish ruxsatnomasi berilishidan avval IDI polisiga ega bo'lish talab qilinadi. Agar IDI polisi taqdim etilmasa, qurilish ruxsati yoki foydalanishga topshirish sertifikatini berilmaydi. Ta'kidlash joiz, quyosh panellari o'rnatilishi ham bino konstruksiyasining bir qismi hisoblanib, mazkur IDI talablariga kiradi.

Bunday sug'urtasiz o'rnatilgan inshootlar uchun Saudiya Arabistoni qonunchiligi bino qurilish ruxsatnomasi va foydalanish huquqi berilmasligini nazarda tutadi.

Fransiya qonunchiligida esa, aynan, QTEM ni o'rnatganlik uchun to'g'ridan to'g'ri majburiy sug'urta emas balki, "quruvchi" – ya'ni o'rnatilgan qurilish ishlari uchun mas'ul yetkazib beruvchi subyetktlar – albatta 10 yillik qayta ta'mirlash kafolatini beruvchi sug'urtaga ega bo'lishi kerak. Bu qurilishshunoslikda "assurance décennale" deb nomlanadi va 1978-yil 4-yanvarda qabul qilingan Spinetta qonuni (amaldagi Code civil, Art.1792-1 va sug'urta kodeksi Art. L241-1/L242-1)[8] asosida majburiydir. Shuningdek, uy egasi (ma'mur) boshqaruvidagi qurilish uchun (masalan, tomga quyosh panellari o'rnatilsa) qurilish ishlari boshlanishidan oldin "dommage-ouvrage" sug'urtasini ham ta'minlashi shart (Code des assurances L242-1). Quruvchi korxonalar, odatda, professional javobgarlik (RC Pro) sug'urtasini ham amalga oshiradi. Mazkur sug'urtalar talabini buzganlik uchun Fransiya Sug'urta Kodeksining L243-3-moddasiga ko'ra 6 oygacha qamoq va 75 000 yevrogacha jarima belgilangan. Shuningdek, sug'urta bo'lmagan qurilish binosiga foydalanish ruxsatnomasi olinmasligi yoki ish bitgach foydalanishga topshirilishidan oldin sug'urtasiz loyihani qabul qilish mumkin emas.

Natija. Mamlakatimizda esa amaldagi huquqiy tartibga solishda bir qator tizimli nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tashkil etilgan va 5-band 6-xatboshida uning vazifalaridan biri sifatida: "elektr energiyasining raqobatga asoslangan ulgurji va chakana bozorlari ishtirokchilari faoliyatini litsenziyalash va ularning litsenziya shartlariga amal qilishini nazorat qilish" — belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-maydagi 91-son qarori bilan elektr energetikasi sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi ham joriy qilingan.

Biroq, mazkur litsenziyalash talablari O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida aks ettirilmagan. Bu esa o'z navbatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid qonun hujjatlaridagi nomutanosibliklarning kelib chiqishiga olib keladi.

Hozirgi kunda ko'plab qurib bitkazilayotgan ko'p qavatli uy-joylarni, xo'jalik yurituvchi subyektlar binolarining va yangi foydalanishga topshirilayotgan binolarning foydalanishga topshirilishida va davlat tomonidan qabul qiluvchi komissiyasidan o'tkazilishida ushbu obyektlarda elektr va issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalari belgilangan texnik reglamentlarga asoslangan talab darajasida o'rnatilganligi holati, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi turar joy obyektlarida o'rnatilayotgan kichik quyosh fotoelektrik stansiyalari, gelio quyosh uskunalari qurilmalarini o'rnatish va ekspluatatsiyaga topshirish jarayonlarida, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, hamda litsenziatlarning huquq va majburiyatlarini kafolatlash maqsadida sug'urta mexanizmi keng ko'lamda joriy etilmaganligidadir.

Asosiy muammo shundaki: byudjet mablag'lari hisobiga qurilgan ijtimoiy obyektlar, ko'p qavatli uy-joylar va binolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi turar joy obyektlarida o'rnatilayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalariga ishlab chiqaruvchi va/yoki o'rnatuvchi tashkilot tomonidan 15-20 yilgacha kafolat berilmoqda. Biroq ushbu ishlab chiqaruvchi va yoki o'rnatuvchi tashkilot majburiyatlarini bajarishi kafolatlanmagan. Qayta

tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining o'zini qoplash muddati 7-8 yil ekanligini inobatga olgan holda, ushbu qurilmalar ishdan chiqqanda ularga kafolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash zarurati yuzaga kelgan. Shu bois, nizomda keltirilgan "sug'urta majburiyatlari" bo'yicha mavjud litsenziya talabiga aniqlik kiritishni taklif etamiz.

Shuningdek, sug'urta mexanizmining amalda joriy etilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, yetkazib berish, tarmoqqa ulash, hosil bo'lgan energiyani saqlash, uzatish va umuman ekspluatatsion jarayon davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy vositaviy zararlarni sug'urtalash orqali iste'molchilar va litsenziatlarning huquqlari himoya ostida bo'ladi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonunining, 22-moddasida, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi talablar keltirib o'tilgan va unga ko'ra: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi faoliyat ushbu sohadagi texnik reglamentlar, normalar va qoidalarga, ekologik, sanitariya, shaharsozlik normalari va qoidalariga, ishlarni xavfsiz yuritish talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi kerakligi ko'zda tutilgan. Shunga qaramay yangi ekspluatatsiyaga topshirilayotgan aholi turar joy binolari va xo'jalik subyektlarida qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, o'rnatib ekspluatatsiyaga tayyorlovchi subyektlar va iste'molchilar o'rtasida ularning huquqlari va majburiyatlarini kafolatlovchi sug'urta polisi mavjud emas.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aholi uylari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va korxonalar tomlariga o'rnatilgan qurilmalar, texnik shartlarga rioya etilmaganligi, belgilangan texnik reglament bo'yicha tarmoqqa ulanmaganligi, ekspluatatsiya jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga yetarlicha rioya etilmasligi natijasida, tarmoqdagi kuchlanish o'rnatilgan qurilma ishlab chiqaradigan elektr energiyasi kuchlanishiga mos kelmasligi holatlarida, tarmoqdagi qisqa tutashuv natijasida, qurilmalarni yetkazib berish yoki o'rnatish, tarmoqqa ulash jarayonidagi yo'l qo'yilgan texnik kamchiliklar natijasida qurilmalarning belgilangan quvvatda ishlamasligi oqibatida foydali ish koeffitsiyentining pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa quyosh panellari o'rnatilgan aholi uy tomlarida qurilmalarni ishga tushirish uchun maxsus ruxsat kerak emas. Agar quyosh panellari umumiy elektr tarmog'iga ulanadigan bo'lsa, fuqaro hududiy elektr tarmoqlari AJga murojaat qilib, ulanish uchun texnik shartnoma oladi. Qonunchilikka muvofiq, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalaridan foydalanib, o'z iste'moli uchun elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi iste'molchiga tarmoqqa kafolatli ulanish huquqi berilgan. Bu esa o'z navbatida qurilmani yetkazib berish, o'rnatish va ekspluatatsiyaga tayyorlash jarayonidagi texnik qoidalarga amal qilinganligi holatini to'liq o'rganish imkoniyatini bermaydi. Yuqorida qayd etib o'tilgan xato va kamchiliklar oqibatida vujudga kelayotgan energiya yo'qotishlari va qisqa tutashuvlar natijasidagi yong'in holatlari iste'molchilar huquqlari, ishlab chiqaruvchilar va sohada litsenziya asosida ish yurituvchi subyektlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish uchun sug'urta institutini qo'llash joiz deb hisoblaymiz.

Xulosalar. Mazkur muammolar O'zbekiston Respublikasi energiya samaradorligini oshirish borasidagi siyosatida, uzluksiz ta'minot va infrastrukturani rivojlantirish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa energiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va "oqilona energiya" tamoyillarini joriy etish jarayonida oqsashlarga olib keladi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sohada majburiy sug'urta tizimini joriy etish, ishlab chiqaruvchi va o'rnatuvchi tashkilotlar javobgarligini kafolatlaydi hamda ekspluatatsiya jarayonidagi texnik xatoliklar oqibatida yuzaga keladigan zararlarni qoplashga xizmat qiladi. Bunday mexanizmlar iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash va tarmoqdagi texnik barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston sharoitida QTEM jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda majburiy sug'urta talablarini joriy etish, litsenziyalash tizimini takomillashtirish, texnik reglamentlar ijrosini kuchaytirish va ishlab chiqaruvchi-o'rnatuvchi-iste'molchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda kafolatli mexanizmlarni yaratish sektorning barqaror rivoji uchun zarurdir. Shu bois, mazkur maqolada amaldagi huquqiy baza, texnik talablar, xalqaro tajriba va aniqlangan muammolar asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni beramiz:

- QTEM bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini – ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash va savdoni qamrab olgan holda litsenziyalash, texnik reglamentlarga rioya etish, standartlashtirish va majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish zarur.
- sohada faoliyat yurituvchi litsenziatlarning (ayniqsa, quyosh panellari va geoleo tizimlarini o'rnatuvchilarning) sug'urta majburiyatlarini joriy etish orqali iste'molchilar huquqlari va majburiyatlarini ta'minlash lozim;

O'zbekistonda QTEMdan foydalanish sohasida institutsional va tartibga solish mexanizmlarini mustahkamlash maqsadida amaldagi qonunchilik takomillashtirilishi zarur. Bu bir tomondan, sohadagi xavfsizlikni, sifatni va tartiblilikni oshirsa, ikkinchi tomondan, mamlakatning "yashil iqtisodiyotga" o'tish jarayonida QTEMdan keng ko'lamda foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tartibning joriy etilishi mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida aholining QTEM dan foydalanishga o'tishi uchun muhim turtki, qolaversa soha rivoji uchun ildam qadam va muqobil energiya manbalarining har jabhada keng ko'lamda joriy etilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Fourth National Communication Of The Republic Of Uzbekistan Under The UN Framework Convention On Climate Change, Tashkent 2024, https://unfccc.int/sites/default/files/resource/4NC_Uzbekistan_ENG_14%2010_SEC.pdf
2. Uzbekistan Energy Profile, INTERNATIONAL ENERGY AGENCY REVIEW, <https://iea.blob.core.windows.net/assets/8c1cefe6-4c29-46b0-82fa-c524714e54a5/UzbekistanEnergyProfile.pdf>
3. Renewable Energy Accounts for 23% of Power Generation in Uzbekistan — UzDaily.uz, <https://www.uzdaily.uz/en/renewable-energy-accounts-for-23-of-power-generation-in-uzbekistan>
4. M. Hao, K. Qian and S. C. -K. Chau, "Privacy-Preserving Blockchain-Enabled Parametric Insurance via Remote Sensing and IoT," in IEEE Transactions on Services Computing, vol. 18, no. 5, pp. 3093-3105, Sept.-Oct. 2025, <https://doi.org/10.1109/TSC.2025.3570857>
5. Niakh, F., Bassière, A., Denuit, M., & Robert, C. (2025). Peer-to-Peer Basis Risk Management for Renewable Production Parametric Insurance. arXiv preprint arXiv:2504.09660. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2504.09660>
6. Hao, M., Qian, K., & Chau, S. C. K. (2023, June). Blockchain-enabled parametric solar energy insurance via remote sensing. In Proceedings of the 14th ACM International Conference on Future Energy Systems (pp. 99-108). <https://doi.org/10.48550/arXiv.2305.09961>

7. Saudi Re named exclusive reinsurer for Inherent Defects Coinsurance Program – Saudi Re <https://saudire.net/saudi-re-named-exclusive-reinsurer-for-inherent-defects-coinsurance-program/>
8. Article 12 - Loi n° 93-8 du 4 janvier 1993 relative aux relations entre les professions de santé et l'assurance maladie. - Légifrance https://www.legifrance.gouv.fr/loda/article_lc/LEGIARTI000006757685
9. Uzbekistan commissions 2.8 GW of new power plants in 2024 — UzDaily.uz <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-commissions-28-gw-of-new-power-plants-in-2024/?utm>
10. O'zbekiston Respublikasining, 21.05.2019.yilgi, , O'RQ-539-sonli "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4346831>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ,28.01.2022.yildagi, PF-60- sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023yildagi.PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
13. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.07.2021yildagi, O'RQ-701-sonli "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-5511879>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 13.02.2025yildagi, 91-sonli "Elektr energetikasi sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7379745>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).